

GLOBALLASHUV SHAROITIDA ENERGIYA RESURSLARIDAN
OQILONA FOYDALANISH

Buxoro davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrasi

katta o'qituvchisi, Phd

Giyazova N.B.

Buxoro davlat universiteti

Iqtisodiyot va turizm fakulteti

4-bosqich talabasi

Qudratov Sardorxon Azimxon o'g'li

Annotatsiya. *Energetika sohasi hozirgi zamonda harqanday davlatning asosiy sohalaridan hisoblanadi. Masalan; iqtisodiyotning elektir energiyasi qo'llanimaydigan sohasi deyarli yuq mamlakatlar hozirga kunda elektir energiyasini asosan IES va AESlardan olmoqda. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida energiya resurislaridan oqilona foydalanish*

Kalit so'zlar: *Energetika, gidroenergetika, elektr, IES, AES, innovatsion, investitsiya.*

Keyingi yillarda O'zbekistonda energetika masalasi tobora dolzarblashib bormoqda. Aholi sonining ko'payib borayotgani, urbanizatsiya va jadal iqtisodiy o'sish kabi omillar elektr energiyasiga bo'lgan talabni tabiiy ravishda oshirayotgani barobarida mavjud quvvatlarga va tarmoqlarga bo'lgan bosimni ham kuchaytirmoqda .

Energetika – bu yuqori sur'atlarda rivojlanib borayotgan ishlab chiqarish tarmog'idir. Sanoat taraqqiy etib borayotgan zamonaviy dunyomizni elektr energiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi, barcha ishlab chiqarish jarayonlari, shu jumladan, butun insoniyatning hayot ta'minoti elektr energiyasi hisobiga amalga oshirilmoqda.

Mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish va yangilarini barpo etish, ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish, aholining hayot darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish orqali siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik ta'minlanmoqda. Bunda esa, kafolatlangan energoresurslar manbai bilan ta'minlangan qo'shimcha energetik quvvatlarni ishga tushirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Darhaqiqat, energetika har qanday mamlakatning iqtisodiy farovonligini ta'minlaydigan, jumladan, iqtisodiyot tarmoqlarini izchil rivojlantiradigan,



fuqarolarning farovon hayoti uchun imkoniyat yaratadigan, ta’lim, tibbiyot va kommunal xizmatlar kabi muhim ijtimoiy sohalarning uzluksiz faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratadigan eng muhim tizim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining birlamchi yoqilg‘i-energetika resurslari tarkibida 97 foizni neft va gaz, 2,3 foizni ko‘mir hamda 0,7 foizni gidroenergetika tashkil etadi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo‘yicha katta salohiyat mavjud bo‘lishiga qaramasdan, uning salmog‘i hali yetarli darajaga ko‘tarilmagan.

Ma’lumki, elektr energetikasi iqtisodiy o‘shishning barqarorligini va aholi farovonligini ta’minlashning muhim manbaidir. Darhaqiqat, mamlakatimizda ushbu tarmoqni modernizatsiya qilish, energiya quvvatlarini ko‘paytirish va iste’molchilarni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, aholi va mamlakat iqtisodiyotining elektr energiyasiga bo‘lgan o‘sib borayotgan ehtiyojini qondirish, energiya hosil qiluvchi quvvatlarni ko‘paytirish hisobiga energiya bilan barqaror ta’minlash, energetika sektorini diversifikatsiya qilish, atim energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish va ushbu yo‘nalishlarga ilg‘or innovatsion texnologiyalarni joriy etish maqsadida Prezidentimizning 2018 yil 19 iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni bilan Atom energetikasini rivojlantirish agentligi («O‘zatom» agentligi), 2019 yil 1 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi yoqilg‘i-energetika tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tashkil etildi.

Shuningdek, 2019 yil 7 fevral kuni Prezidentimizning qarori bilan 2019-2029 yillarda O‘zbekiston Respublikasida atim energetikasini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi.

Bugungi kunda mamlakatimizda aholi soni va iqtisodiyot tarmoqlaridagi o‘shish sababli energiyaga, xususan, elektr energiyasiga bo‘lgan talab muttasil oshib bormoqda. Jumladan, 2019 yildan boshlab elektr energiyasiga bo‘lgan talab taklifdan 3 foizga oshishni boshlagan, 2030 yilga borib ushbu ko‘rsatkich 6-7 foizga yetishi prognoz qilinmoqda.

Xuddi shuningdek, elektr energiyani ishlab chiqarish esa respublika YaIM o‘shishiga (o‘rtacha 5-6 foiz) nisbatan (o‘rtacha 2,5-2,7 foiz) kam foizda o‘smoqda. Elektr energiyasi taqchilligi qo‘shni davlatlar importi, xususan, 64 foizi – Turkmaniston, 20,3 foizi –Tojikiston, 11,3 foizi – Qozog‘iston va 4,4 foizi – Qirg‘iziston hisobiga qoplanmoqda.



Xo'sh, mamlakatda elektr energiyasi quvvatlari nega talab etilayotgan ehtiyojni qondirib bera olmayapti? Buning asosiy sabablaridan biri – bugungi kundagi elektr tarmoqlarining asosiy qismi, jumladan, magistral tarmoqlarining 66, taqsimlash tarmoqlarining 62, podstansiyalarning 74 , transformatorlarning 50 foizi xizmat qilish muddati 30 yildan oshganligidir. Natijada magistral tarmoqlarda energiya yo'qotishlarining o'rtacha darajasi 2,72 foizni, taqsimlash tarmoqlarda esa 12,5 foizni tashkil etmoqda.

Shu sababli, Prezident energetika sohasiga 25-30 milliard dollar investitsiya kerakligini va bunga faqatgina xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali erishish mumkinligini ta'kidladi.

Bundan tashqari, Prezident kelgusi yilda yangi elektrostansiyalarni ishga tushirish, energiya samaradorligini oshirish va “yashil energiya”ni joriy etish choralari ko'rilishini ta'kidladi.

Xususan, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida barpo etiladigan quyosh va shamol elektr stansiyalari hisobiga qo'shimcha 14 milliard kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Bu orqali xonadonlarga beriladigan elektr energiyasi 50 foizga ko'payadi.

Kelasi uch yilda barcha davlat tashkilotlarida quyosh panellari va issiq suv kollektorlari o'rnatiladi.

Aholi xonadonlarida esa quyosh paneli o'rnatishga ajratiladigan subsidiyalar hajmi 2 barobarga ko'paytiriladi.

Mazkur ko'riladigan choralar yurtimizda energiya taqchilligi bartaraf etilishiga va natijada, respublika iqtisodiyotining barqaror o'sishi, aholi farovonligi uchun muhim hisoblangan sohalarning uzluksiz ishlashini ta'minlashga xizmat qilishi, shubhasiz.

Umuman olganda, elektr energetikasi tarmog'ini yanada rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishning barqarorligini va aholi farovonligini ta'minlash yangi O'zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulloyev, A. (2023). Methodological foundations for evaluating the efficiency of agrocluster management. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42).

2. Abdulloyev, A. (2023). АГРОКЛАСТЕР ФАОЛИЯТИНИ БОШҚАРИШНИНГ “БАЗАВИЙ” МОДЕЛИ ВА УНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42).



3. Choriyeva, N. (2022). Priorities in the Development of Agricultural Cooperation in Uzbekistan. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 16(16).

4. Choriyeva, N. (2022). РАЗВИТИЕ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КЛАСТЕРОВ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 16(16).

5. Dustova, A. (2022). Stimulating The Economic Growth Of Territories Through The Development Of Regional Tourism. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 12(12).

6. Niyozova, I. (2021). The Transition to the Green Economy and the Importance of Strategy. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).

7. Niyozovna, N. I. (2023). Ways to Increase the Competitiveness of Enterprises through Digital Marketing Strategies. European journal of business startups and open society, 3(12), 154-157.

8. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Поддержка предпринимательской деятельности в Узбекистане. International scientific review, (2 (12)), 105-107.

9. Qayimova, Z. (2023). Ways to Develop Economic Infrastructure in Uzbekistan. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 27(27).

10. Kadirovna, S. N. (2024). Importance of Foreign Experience for Uzbekistan in the Transition to a Green Economy. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 4(4), 48-51.

11. Giyazova, N. (2023). The share of world countries in the textile industry and the importance of marketing in its development. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 27(27).

12. Anatolyevna, R. I., & Bayazovna, G. N. (2022). The Role of Innovative Marketing in the Development of the Textile Industry. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 2(11), 10-14.

13. Bayazovna, G. N. (2022). Ensuring the Development of Textile Enterprises on the Basis of Competitive Advantage. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 3(6), 40-45.

14. Giyazova, N. (2022). РАЗРАБОТКА МЕТОДА ДИАГНОСТИКИ ВЛИЯНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ НА УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 20(20).

15. Игамова, Ш. З. (2024). МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО



МЕХАНИЗМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ
ИННОВАЦИОННОГО развития ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНЫХ
МАТЕРИАЛОВ. *Gospodarka i Innowacje.*, 43, 335-340.

16. Igamova, S. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ. ЦЕНТР
НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 27(27).

17. Niyozova, I. (2021). Mechanism of Implementation of Mandatory
Health Insurance in Uzbekistan under Conditions of Increasing Integration
Processes. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 7(7).

18. Rakhmatullaeva, F. M., & Aminova, N. B. (2022). Methodological
Approaches To The Development Of Ecological Tourism Logistics. *European
Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 2(1), 207-211.

19. Rakhmatullaeva, F. M., & Nurova, G. N. (2020). The importance of
trade policy in the economic development of the country. *Economics*, 1, 27-28.

20. Muxammedovna, Z. N., & Ravshanovna, R. G. (2023). DIRECTIONS
FOR USING DIGITAL MARKETING IN THE FOREIGN ECONOMIC
ACTIVITY OF THE ENTERPRISE.

21. Xasanova, S. (2023). Analysis of the Work Carried Out in Uzbekistan
and the World to Prevent Tax Violations. *EUROPEAN JOURNAL OF
INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(12), 47-50.

22. Хаирова, Д. Р., & Сайфуллаева, М. И. (2021). Тенденции развития
цементной индустрии в Узбекистане. *Бюллетень науки и практики*, 7(6),
358-362.

